

ASOSIY VOSITALARGA QILINGAN SARFLARNING AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

Egamberdiyeva Salima Rayimovna

*Qarshi davlat texnika universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası
professori v.b., i.f.n.*

E-mail: salimaegamberdiyeva147@gmail.com;

+99899 517 30 80.

Akobir Guliyev Shuxrat o'g'li

QDTU magistranti

akobirguliyev@gmail.com.

+998 91 956 80 48

Annotatsiya: *Maqolada asosiy qilingan sarflar-kapital investitsiyalarning auditining zaruriyati, maqsadi, ahamiyati va vazifalari ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Bir yildan ortiq muddat mobaynida foydalaniladigan aktivlar, asosiy vositalar, investitsiya, kapital investitsiya.*

Аннотация: *В статье описываются необходимость, цель, важность и задачи аудита капитальных затрат.*

Ключевые слова: *Активы, используемые более одного года, основные средства, инвестиции, капиталовложения.*

Abstract: *The article describes the necessity, purpose, importance and objectives of capital expenditure audit.*

Key words: *Assets used for more than one year, fixed assets, investments, capital investments.*

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulchilikning xilma-xil shakllarining vujudga kelishi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarining joriy etilishi barcha korxonalarda buxgalteriya buxgalteriya hisobi va auditda, shu jumladan, asosiy vositalar baholanishi hamda asosiy vositalar hisobini, nazoratini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kundagi buxgalteriya hisobining eng asosiy yo'nalishlaridan biri asosiy vositalarning holati va harakatini hisobga olish, ularni to'g'ri baholanishini, undan samarali foydalanishni nazorat qilish maqsadida buxgalteriya hisobi va auditning milliy andozalariga mos keladigan yangi hisob tizimini yaratish lozim.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy vositalar hisobi va auditining nazariy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Asosiy vositalarni tan olish mezonlari, asosiy vositalarni boshlang'ich tannarxida baholash, asosiy vositalarni haqiqiy tannarxi bo'yicha hisob modeli yoki qayta baholangan qiymati bo'yicha hisob modellari asosida baholash tartiblari, asosiy

vositalarni qayta baholash natijalarini aks ettirish, asosiy vositalarni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xalqaro audit standartlari asosida xo'jalik yurituvchi subyektlar asosiy vositalarni audit qilish metodologiyasini takomillashtirish o'ta dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirishda qator iqtisodchi olimlarning hissasi katta. Xususan, xorijiy iqtisodchi olimlardan [Hermanson R. H., 1992], [Needles B., 2004], [Arxipova A.I., Bolshakova A.K., 2005] va boshqa tadqiqotchilar moliyaviy hisobotning nazariy-konseptual asoslari hamda aktivlar, majburiyatlar va xususiy kapitalni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning metodologik masalalari bilan bog'liq tadqiqotlarni olib borganlar.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda asosiy vositalar hisobi va auditini masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan, shuningdek, ilmiy maqolalar, monografiyalar va darsliklar chop etilgan. Bular qatoriga [Xasanov B. A., Nurmanov K. T., Hasanova R. B., 2021], [Sotivoldiyev A. S., Itkin Yu. M., 2002], [Tashnazarov S. N., 2019], [Urazov K. B., Vaxidov S. V., 2010], [Egamberdiyeva S. R., 2021], [Tulaxodjayeva M.M., Ilhamov Sh.I., Axmadjonov K .B, Fayziyev Sh.t Xodjayeva M .X , Tulayev M.S. 2018], [I.N.Qo'ziyev, Sh.N.Fayziev, A.Z.Avloqulov, I.X.Sherimbetov 2015], [K.B. Ахмеджанов 2019] [Dusmuratov R.D.(2013], [Egamberdiyeva S.R. 2021] va boshqa mualliflarning izlanishlarini kiritish mumkin.

Ularning tadqiqotlarida asosiy vositalar hisobi va auditini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish masalalarini atroflicha ko'rib chiqqan.


Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy maqolani tayyorlashda induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, tarkibiy tahlil, statistik tahlil, abstrakt-mantiqiy fikrlash, kabi usullar qo'llanilgan. Maqolaning uslubiy asosi sifatida xorijiy va milliy iqtisodchi olimlarning adabiyot va maqolalari tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar

Hozirgi iqtisodiy sharoitda mamlakatimizda buxgalteriya hisobi me'yorlari hamda moliyaviy hisobotni tuzish qoidalari xalqaro standartlar talablariga moslashtirilmoqda.

Korxona aktivlarini korxona ishlatish yoki foydalanish muddatiga qarab ikkita guruhga ajratish mumkin:



1-rasm. Korxona aktivlarini ishlatish yoki foydalanish muddatiga guruhlanishi.

Bir yildan ortiq muddat mobaynida foydalaniladigan aktivlarni "uzoq muddatli aktivlar" deb aytiladi va ular tarkibiga moddiy va nomoddiy aktivlar kiradi.

Moddiy (asosiy vositalar) va nomoddiy aktivlar bu bir yildan ko‘proq foydali xizmat qilish muddatiga ega bo‘lgan ishlab chiqarish, ma‘muriy maqsadlar uchun foydalanadigan va qayta sotish uchun mo‘ljallanmagan aktivlardir.

Asosiy vositalar yangi kapital investitsiyalarni kiritish, ularni bepul kelib tushishi, ta‘sis badali sifatida kirim qilinishi evaziga ko‘payishi, shuningdek ularning boshlang‘ich qiymati qayta baholash hisobidan oshishi mumkin.

Kapital investitsiyalar – bu yangi obyektlarni qurishga, eski obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga, shuningdek yangi asosiy vositalarni sotib olishga sarflangan mablag‘lar majmuasi. O‘zbek tili lug‘atida bu so‘zning «kapital qo‘yilmalar» nomli sinonimi ham mavjud.


Xalqaro standartlarda va O‘zbekiston Respublikasining milliy standartlarida (5-son BHMS) bu xarakterdagi xarajatlar asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymatini ko‘paytiradigan xarajatlar deb tan olinadi.

Kapital investitsiyalar xarakteriga ko‘ra ichki investitsiya hisoblanadi, ular bevosita korxonaning qudratini oshirishga yo‘naltirilgan mablag‘lardir.

Asosiy vositalarga qilinadigan sarflarni auditdan o‘tkazish muhim masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy vositalarga qilinadigan sarflarni auditining bosh maqsadi – korxona egaligida bo‘lgan, korxona faoliyatida bir yildan ortiq foydalaniladigan va qayta sotish uchun mo‘ljallanmagan moddiy aktivlarga sotib olishga, modernizatsiya qilishga, ta‘mirlashga, rekonstruksiya qilishga qilingan xarajatlarni to‘g‘ri hisoblanganiga va balans, hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarda BHMS talablariga mos aks ettirilganiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Асосий воситаларга қилинган харажатлар бўйича аудит текширувини ўтказиш жараёнида аудиторнинг вазифалари қуйидагилардан иборат:



2-расм. Asosiy vositalarga qilingan sarflarni auditining vazifalari.

Yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi yakunida ichki nazorat tizimi yetarli darajada sifatli deb topilsa auditor tekshiruv ko'lamini qisqartirishi va mos ravishda audit rejasi va dasturining batafsilligi ham qisqartirilishi mumkin. Umumiy ko'rinishdagi audit rejasi va dasturining namunasi 1 va 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval

Asosiy vositalarga investitsiyalar auditining umumiy rejasi

Tekshirilayotgan korxona "Bunyodkor" AJ; Audit o'tkaziladigan davr 2024.01.01.dan 2024.31.12.gacha; Kishi-soat miqdori 280; Auditorlik guruhi rahbari Nodirov S.; Auditorlik guruhi tarkibi Salimov N., Komilov R; Rejalashtirilayotgan auditorlik tavakkalchiligi 4%; Rejalashtirilayotgan ahamiyatlilik darajasi 1%.				
T/P	Olib boriladigan ishlar rejasi (vazifalar majmui)	O'tkazish muddati	Ijrochilar	Izoh
1	2	3	4	5
1.	Asosiy vositalar mavjudligi va saqlanishining auditi	Hisobot yili bo'yicha	Salimov N., Komilov R	Iqtisodiy auditining umumiy subyekt yig'ma rejasiga
2.	Asosiy vositalarga qilingan sarflar auditi	Hisobot yili bo'yicha	Salimov N., Komilov R	
3.	Asosiy vositalar qabul qilinishi va barpo etilishining auditi	Hisobot yili bo'yicha	Salimov N., Komilov R	
4.	Asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha hisobni tekshirish	Hisobot yili bo'yicha	Salimov N., Komilov R	
Auditorlik tashkiloti rahbari Voxidov T. Auditorlik guruhi rahbari Нодиров С				

Audit rejasini tayyorlagach auditor audit dasturini tuzadi (2- jadval). Dasturda audit rejasida keltirilgan vazifalarga erishish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan audit amallarining batafsil tavsifi yoritiladi.

2-jadval

Asosiy vositalar auditining dasturi

T.p.	Auditorlik tadbirlari (muolajalari)ning ro'yxati	O'tkazish davri	Ijrochilar	Auditorning ishchi hujjatlari
1	2	3	4	5
1.	Asosiy vositalar mavjudligi va saqlanishining auditi	Yil davomida	Salimov N, Komilov R..	
1.1.	Asosiy vositalarni qabul qilish bo'yicha komissiyalar tuzilganligini tekshirish	Har chorakda	Salimov N, Komilov R.	Buyruqlar, farmoyishlar
1.2.	Asosiy vositalarni sotib olish-sotish shartnomalari rasmiylashtirilganligini tekshirish	Har chorakda	Salimov N, Komilov R.	Shartnomalar, kelishuvlar
1.3.	Kelishuv narxlari bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtirilganligini tekshirish	Har chorakda	Salimov N, Komilov R.	Bayonnomalar, kelishuvlar, buyruqlar
1.4	Asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomalarida ularning dastlabki qiymati to'g'ri aks etilganligini tekshirish	Har chorakda	Salimov N, Komilov R.	Qabul qilish-topshirish dalolatnomalari, inventar varaqalar, ro'yxatga olish daftarlari
1.5	Obyektlar qurib bitkazilgani va jihozlangani yoki tiklash va qisman tugatilganidan keyin ularning dastlabki qiymati to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish	Har chorakda	Salimov N, Komilov R..	Loyiha-smeta hujjatlari, buyruqlar, inventarizatsiya dalolatnomalari
1.6.	Korxona buxgalteriyasida asosiy vositalarning sintetikva tahliliy hisobi va ulardan foydalaniladigan joylarda moddiy javobgar shaxslarning ishlari qanday	Har chorakda	Salimov N, Komilov R.	Dastlabki hujjatlar, hisob registrlari, hisob siyosati

	tashkil etilganligini baholash			
1.7.	Korxonada asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari hisobi bo'yicha amal qilinayotgan tartibni tekshirish va baholash	Har chorakda	Salimov N, Komilov R.	Hisob siyosati, buyruqlar, smetalar, hisobotlar
1.8	Korxona buxgalteriyasi amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlanganligini tekshirish	Har chorakda	Salimov N, Komilov R..	Buyruqlar, farmoyishlar
1.9	Mavjud asosiy vositalar hisobotda aks ettirilganligini tekshirish	Har chorakda	Salimov N, Komilov R.	Hisobot shakllari
Auditorlik tashkiloti rahbari Auditorlik guruhi rahbari			Voxidov T. Nodirov S	

Ushbu dasturga qo'shimcha ravishda katta auditor tomonidan quyidagi ko'rinishga ega bo'lgan asosiy vositalar hisobining tekshiruviga oid savolnoma ham tuziladi. Buning natijasida audit tekshiruvini yanada tartibli o'tkazish asosiy vositalarning barcha elementlarini tekshirish imkoni yuzaga keladi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish asosiy vositalar yuzasidan audit dalillariga asoslanadi. Asosiy vositalarni audit qilish vaqtida foydalaniladigan audit dalillari korxonada qabul qilingan hisob siyosatiga bog'liqdir. Bular jurnal-orderli, memorial-orderli, soddalashtirilgan, kompyuterda ishlov uchun yo'naltirilgan, shuningdek, qo'llaniladigan registrlar ro'yxati, ularning tuzilishi, ulardagi yozuvlar muntazamligi va yozuv usullari bilan belgilanadi.

Asosiy vositalar hisobining auditorlik tekshiruvini rejalashtirish iqtisodiy sub'ekt auditorlik tekshiruvining yig'ma umumiy rejasi va yig'ma dasturi asosida amalga oshiriladi. Asosiy vositalarni tekshirishga oid umumiy reja yuqorida qayd etilgan bo'limlar bo'yicha audit yo'nalishlarini hisobga olishi lozim.

Rejalashtirish bosqichida audit rejasi va dasturining mohiyati auditor tomonidan quyidagi vazifalarning amalga oshirilishi bilan uzviy bog'liq:

- asosiy vositalarga nisbatan mavjud ichki nazorat tizimi bilan tanishish;
- ichki nazorat tizimiga nisbatan nazorat riskini dastlabki baholash va qo'shimcha

nazorat testlarini ishlab chiqish;

- qo'shimcha nazorat testlarini qo'llash;

- nazorat riskini qayta baholash va asoslovchi testlarni ishlab chiqish;

- asoslovchi testlarni qo'llash va asosiy vositalar yuzasidan ichki nazorat tizimi bo'yicha hisobot tayyorlash.

Yuqoridagi vazifalarning amalga oshirilishi yakunida ichki nazorat tizimi etarli darajada sifatli deb topilsa auditor tekshiruv ko'lamini qisqartirishi va mos ravishda audit rejasi va dasturining batafsilligi xam qisqartirilishi mumkin.

Hisobda qayd etilmagan ob'ektlar yoki hisob registrlarida ularga mansub bo'lmagan tavsiflar keltirilgan hollarda, ko'rsatilmagan ma'lumotlar va texnikaviy ko'rsatkichlar komissiya tomonidan to'ldiriladi. Shu vaqtning o'zida bunday ob'ektlarning bunyod etish yoki sotib olish vaqti, xarajatlarni moliyalashtirish manbalari, ularni qurish zaruriyati, moliyaviy intizomga rioya qilinishi uchun mas'ul shaxslar doirasi aniqlanadi.

Auditor tomonidan qonunchilikka xilof ravishda bunyod etilgan yoki sotib olingan asosiy vositalarni tasdiqlovchi hujjatlar aniqlansa, auditorlik tekshiruvi asosiy vositalar qonunga xilof ravishda sotilganligi yoki talontaroj qilinganligi to'g'risidagi xabarga muvofiq o'tkazilayotgan bo'lsa, unda u to'satdan taftish o'tkazish bilan boshlanadi. Bunda auditor inventar varaqalari yoki inventar daftari mavjudligi va holati, sintetik va tahliliy hisob ma'lumotlari bir biriga muvofiqligini tekshiradi. Inventar varaqalarining ma'lumotlari inventar ro'yxati ma'lumotlari bilan, inventar ro'yxatining umumiy summasi 0100-sonli schyotlar guruhi ma'lumotlari bilan, ular o'z navbatida – balans ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Solishtirish vaqtida asosiy vositalarning kamomadi yoki ortiqchaligi, uning sabablari va aybdor shaxslar hamda ushbu omillarning boshqa ko'rsatkichlarga ta'siri aniqlanadi (asosiy vositalar bo'yicha eskirish va mol-mulk bo'yicha soliq kam yoki ko'p hisoblanishi). Auditor asosiy vositalar joylarda mavjud ekanligini tanlab olish usuli bilan tekshirib aniqlaydi.

Kamomad aniqlangan holda, auditor moddiy javobgar shaxslardan tushuntirish xati va kamomadlar qoplanishini talab qiladi. Ushbu kamomadlar auditorlik tekshiruvini o'tkazish vaqtida qoplanishi lozim.

Auditor asosiy vositalar saqlanishini tekshirganda ular moddiy javobgar shaxslarga biriktirilganligi, yozma ravishda moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilganligini aniqlaydi.

Ijaraga olingan vositalar har bir ijaraga beruvchi bo'yicha alohida inventarizatsiya ro'yxatida aks ettiriladi va unda belgilangan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ravishda ijara beruvchining nomi va ijara muddati ko'rsatiladi.

Asosiy vositalar harakatining auditini o'tkazishda asosiy vositalar qabul qilinishi hisobi bo'yicha dastlabki hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganligi hamda mashina va uskunalarining texnik pasportlaridagi yozuvlar tekshiriladi. Birinchi navbatda asosiy vositalarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasini tuzgan komissiya a'zolarining tegishli bilimga egaligi aniqlanadi. Uning tarkibiga inventarizatsiya ob'ektlari bilan mukammal

tanish bo'lgan mutaxassislar kiritilishi lozim. Asosiy vositalar har bir inventarizatsiya ob'ektiga alohida tuziladigan qabul qilish-topshirish dalolatnomalariga asosan kirim qilinadi. Auditorning vazifasi kirim hujjatlarida inventar ob'ektning barcha rekvizitlari va texnik tavsiflari (barpo etilgan yili, ishlab chiqargan zavod raqami, quvvati) qayd etilganligi, uning to'liq jihozlanganligi va ishga yaroqli ekanligini tekshirishdan iborat. Korxonaga avval ishlatilgan inventar ob'ektlari olingan holda, auditor ularning texnik pasportlariga asoslanib, yoki lozim bo'lsa, amalda ko'rib chiqib, eskirish to'g'ri hisoblanganligini tekshiradi.

Xulosa. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar korxonaning muhim uzoq muddatli aktivlaridir. Ularning to'g'ri hisobga olinishi, eskirishini hisoblash va balansdan chiqarish korxona moliyaviy hisobotlarining aniq va ishonchli bo'lishiga xizmat qiladi. Bu esa investitsion qarorlar va strategik rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Korxonalarga asosiy vositalar turli manbalardan kirim qilinadi. Asosiy vositalarni kirim qilish jarayonida turli xarajatlar sarflanadi va ularning boshlang'ich qiymati buxgalteriya hisobi schyotlarida hisobga olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.N. Tashnazarov (2019). Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: Oliy o'quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. — Toshkent, 555 b.
2. Астахов, В. П.(2011) Бухгалтерский (финансовый) учет: учебное пособие для вузов / 9-е изд.-Москва : Издательство Юрайт, 955 с.
3. Hermanson R. H. (1992). Accounting principles: Chapters 1-14, Volume Edition 5 Publisher Irwin, 1992 Length 473 pages.
4. Нидлз Б.(2004). Принципы бухгалтерского учета: Пер. с англ. / Б.Нидлз, Х.Андерсон,
5. Xasanov B.A., Nurmanov K.T., Hasanova R.B. (2021). Zamonaviy boshqaruv hisobi. Darslik/ T.: "LESSON PRESS" MCHJ nashriyoti, 413 b.
6. Уразов К.Б., Вахидов С.В. (2010). Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик, 445 б.
7. Egamberdiyeva S.R. (2021). Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. Qarshi. «Intellect» nashriyoti, 573 bet.
8. Dusmuratov R.D.(2013). Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik.—T.:Fan va texnologiya, 476-b.;
9. Ekonmika: uchebnik./ Pod red. Arxipova A.I., Bolshakova A.K.- M.:“Prospekt”, 2005.-S. 151.
10. Tulaxodjayeva M.M., Ilhamov Sh.I., Axmadjonov K .B, Fayziyev Sh.t Xodjayeva M .X , Tulayev M.S. Audit. Darslik. 2-qism. -T.: IQTISODIYOT, 2018 y. - 405b.

11. B.K. Hamdamov, Sh.I. Ixomov, N.F. Karimov, O.A. Masharipov, M.S. Hojiyev. Amaliy audit. / Darslik. / Toshkent.: OOO "Lesson Press" nashriyoti, 2021.-300 b.

12. I.N. Qo'ziyev, Sh.N. Fayziev, A.Z. Avloqulov, I.X. Sherimbetov. Ichki audit. O'quv qo'llanma. -T.: IQTISOD-MOLIYA, 2015. 198 bet.

13. К.Б. Ахмеджанов. Ички аудит. [Матн]: укув кулланма/ К.Б. Ахмеджанов - Тошкент: Иқтисодиёт, 2019 .- 240 б.

14. К.Б. Уразов, Ш. Азимова. Асосий воситаларга инвестициялар аудитини такомиллаштириш. "Экономика и социум" №6(85) ч.2 2021 www.iupr.ru. Стр. 375-380.

15. S.R. Egamberdiyeva. Xalqaro standartlar asosida qishloq xo'jaligida aktivlarni tasniflash, ularning hisobi va hisobotini takomillashtirish. 2024-yil, may. Maxsus son. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 71-75 bet.